

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ



**ВЕСТНИК ХОРЕЗМСКОЙ АКАДЕМИИ МАЪМУНА
BULLETIN OF KHOREZM ACADEMY MAMUN**

2023 – 6/3

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон
қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт,
филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик
диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия
этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-6/3

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

Kattaboyeva M. Teaching foreign languages in informatization era: new standards for “digitally native” generation	107
Mirzayeva M.J. The role of using ict in educational process	110
Narkulova N.O. Linguadidactic bases of teaching grammatical peculiarities of english nouns to the first year students in uzbek classrooms	113
Qulaxmedova G.A. Teaching grammar and it's challenges	116
Rasulov Z.I., Nurulloyeva M. Pedagogika va psixologiyada manipulyatsiya tushunchasi	119
Ro'zimova G.Sh. Onomastik birliklarning maktablarda o'qitilishi	122
Ruzibaeva D.A. Methods of using innovative technologies in the educational process	125
Sadullayeva N.K. Innovation in foreign language teaching: using webquests to promote learner autonomy	128
Sakbaeva V.V. Development of pragmatic skills as an integral part of teaching foreign languages in non-philological higher education institutions	131
Shukurova N.B. Theolinguistics as a branch of linguistics: methodological problems of theolinguistics	134
Tulaganova D.A. Chet tillarini o'rganishda o'qish ko'nikmasini rivojlantirish masalalari	137
Urinboyeva F.Z. The key to methodologies for teaching foreign languages	140
Xalmamatova L.A., Jaloliddinov S.N. Pedagogik fanlarni o'qitishda talabalarni kreativ fikrash ko`nikmalarini shakllantirish	142
Xamrayeva D.J. Formation of oral and written speech skills in teaching Russian language	147
Yadgarova O.I. Shaxsni o'rganishda proyektiv metodikalarning afzalliklari tahlili	149
Адилбекова А. Метод в обучении EFL/ESL	153
Акбарова Ф.Т. Современный урок русского языка в коммуникативном аспекте	156
Атамуротов М.А., Рахимбаева М.Р., Атамуротов О.Э. Педагогические технологии как основа повышения теоретических знаний при подготовке бакалавров в системе заочного обучения	159
Байбабаева Ш.И. Ностандарт “flipped learning” технологиясини ўрганишда чет тиллар методикасини эволюциясининг ўрни	162
Имьяминова Ш. Немис тили дарсларида фразеологизмларни ўргатиш масаласи	164
Милованова Е.В. Развитие творческого мышления учащихся на уроках русского языка в узбекской школе	167
Муминов У.Р. Баркамол авлодни тарбиялашда маҳалла институтининг тутган ўрни	170
Назиров О.Т. Совершенствование двигательной подготовленности младших школьников в годичном цикле обучения	172
Норкулов Д.Р. Здоровъесберегающие методики в работе с детьми медицинской группы	175
Охунова Д.К. Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий билимларни когнитив қабул қилиш лаёқатларини ривожлантиришнинг педагогик жиҳатлари	178
Рахимбаева М.Р., Атамуротов М.А. Некоторые рассуждения и образцы результатов при использовании инновационных педагогических технологий на занятиях русского языка на примере ВУЗов строительных направлений	181
Халмаматова Л.А., Шатманова С.О. Научная деятельность как залог развития правового государства	183
Холмуратов Р.Н., Абдуллаев И.И. Курашчи талабаларни спортга тайёрлаш жараёнида тайёргарлик турларининг ўзаро боғлиқлиги	185

knowledge of morphology, for if they did not, they would not be able to say I arrive, but the change this to he arrives. They would not be able to use the different forms of the verb take (ta took, taken) without such knowledge, or be able to manipulate a word such as happy (adjective) that it becomes an adverb (happily), a noun (happiness), or has an opposite meaning (unhappy).

Grammar can thus be partly seen as a knowledge of what words can go where and what form the words should take. Studying grammar means knowing how different grammatical elements can be strung together to make chains of words.

REFERENCES:

1. Polat E.S. The method of projects in foreign language lessons // Inostr. Languages at school. – 2000. № 2–3.
2. New pedagogical and information technologies in the education system /Новые педагогические и информационные технологии в системе образования / E.S.Polat. – M.: Publishing Center "Academy". 2000.
3. E.S. Polat. Training in collaboration // Inostr. languages at school. – 2000. № 1.
4. Galskova N.D. Modern methodology of teaching foreign languages Современная методика обучения иностранным языкам. – M: АРКТИ, 2004.
5. Education in Russia for citizens of Uzbekistan. / Обучение в России для граждан Узбекистана. [Education in Russia for citizens of Uzbekistan] [Online] available at: <https://studyinrussia.ru/actual/articles/obuchenie-v-rossii-dlya-grazhdanuzbekistana/> (date of access: October 29, 2018) (in Russ.), 2017.

UO'K 159.923.**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYADA MANIPULYATSIYA TUSHUNCHASI***Z.I.Rasulov, f.f.d., Buxoro davlat universiteti, Buxoro**M.Nurulloyeva, master student, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

Annotatsiya. Ushbu maqolada manipulyatsiyaning pedagogika va psixologiya sohalarida ishlatalish usullari va undan samarali foydalanish yo'llari, hamda uning ma'no mazmuni haqida ta'kidlangan va inson psixologiyasiga ta'sir o'tkazish vositalari bir qancha misollar orqali yoritib berilgan. Bundan tashqari mashhurlarning manipulyatsiya haqidagi firlari ham aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Manipulyatsiya, bola psixologiyasi, nutqiy ta'sir, kommunikatsiya, pedagogika, psixologiya, inson ehtiyoji.

Аннотация. В данной статье на нескольких примерах освещены методы использования манипуляции в области педагогики и психологии и способы ее эффективного использования, а также ее смысл и содержание, средства воздействия на психологию человека. Кроме того, упоминались слухи о манипулировании знаменитостями.

Ключевые слова: Манипулирование, детская психология, речевое воздействие, общение, педагогика, психология, потребность человека.

Abstract. In this article, the methods of using manipulation in the fields of pedagogy and psychology and the ways of its effective use, as well as its meaning and content, and the means of influencing human psychology are mentioned through several examples. In addition, rumors about the manipulation of celebrities have been clarified.

Key words: Manipulation, child psychology, speech effect, communication, pedagogy, psychology, human need.

Bugungi kunda manipulyatsiya pedagogikada ham psixologiyada ham juda katta ahamiyaga ega. Agar biz manipulyatsiyaga pedagogik nuqtai nazardan yondoshadigan bo'lsak asosan yosh bolalarga ya'ni, bog'cha yoshdagi va maktabning boshlang'ich sinf bolalari uchun qurol vazifasini o'taydi. Har bir o'qituvchi ertami kechmi manipulyatsiyaga duch keladi. Men dastlab o'qituvchilik faoliyatimni boshlaganimda o'quvchilarimni ruhlantirish va darsga qiziqtirish maqsadida turli xil metod va usullardan foydalanar edim. Masalan, ba'zi o'quvchilarim unchalik bilim va ko'nikmaga ega bo'lmasada men ularga ishonch bilan "Sen uddalaysan seni qo'lingdan keladi" kabi gaplarni aytib ularni ruhlantirar edim. Ammo bu usul talabalarning bilim o'rganishlarida samarasiz bo'lar edi. Bir kun mening ilmiy tadqiqot rahbarim manipulyatsiya usuli darslarda juda foydali ekanligi va o'qituvchilar undan qanday qilib unumli foydalanishlari mumkinligi haqida aytib o'tdilar. Hamda tajriba sifatida 2 ta guruh talabalaringa dars o'tdilar va men ikkalasini ham kuzatishga muofiq bo'ldim. Birinchi guruhga dars o'tganlarida manipulyatsiyadan umuman foydalanmadilar va talabalar juda

zerikishdi va darsda ham ishtirok etishmadi. Ertasi kuni ikkinchi guruhdagi darslarida manipulyatsiyadan unumli foydalandilar va mavzuga doir video, slaytlar qo'yib berdilar, qiziqarli savol javoblar tashkil qildilar. Shundan keyin talabalarning o'qituvchiga va fanga bo'lgan qiziqishlari ortdi va keyingi darslardan talabalar o'zlari mavzuga oid qo'shimcha ma'lumotlar yig'ib kelishadigan bo'lishdi. Demak manipulyatsiya o'zi nima va u qanday ma'noni anglatadi.

Manipulyatsiyaning ikki xil vazifasi va turli xil ma'nolari mavjud, Birinchidan manipulyatsiya "qo'l ishida murakkab va nozik harakatlar", "barmoqlarning tezligi," "qo'l epchilligi" kabi ma'nolarini anglatса. Ikkinchidan," ta'sir o'tkazish," "boshqarish," "g'oyaviy singdirish" ma'nolarini anglatadi.

Keng ma'noda lingvistik manipulyatsiya - bu o'z motivatsiyasi nuqtai nazaridan qaraladigan va aloqa sub'ekti (so'zlovchi) va aloqa ob'ekti (tinglovchisi) tomonidan amalga oshiriladigan har qanday og'zaki o'zaro ta'sir.

"Manipulatsiya" atamasining keng va biroz xiralashgan semantikasi so'zlovchining "salbiy" niyati va yashirin (tinglovchi uchun aniq bo'lмаган) ta'sir xarakteri kabi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi. Nutqning manipulyativ funktsiyalari sof axborot mazmunidan osongina ajratilmaydigan lingvistik ma'lumotlarning yashirin, niqoblangan qatlamini yaratadi. Pedagogikada manipulyatsiya juda murakkab va nozik mavzu, chunki hech birimiz manipulyatsiya qurboni bo'lishni xohlamaymiz. Ammo, shunga qaramay, har qanday o'qituvchi, ertami-kechmi, buni bolalar bilan ishlashda qo'llaydi.

Zamonaviy sinonimlar lug'atida "manipulyatsiya" atamasi quyidagicha ta'riflanadi:

- boshqarish,
- foydalanish,
- boshqaruv,
- operatsiya qilish va boshqalar [1].

Agar biz manipulyatsiyaga psixologika nuqtai nazaridan yondoshadigan bo'lsak inson psixologiyasiga qay tarzda ta'sir ko'rsatish qanday qilib manipulyatsiya qilish kerakligini Deyl Karnegi quyidagi misollar orqali aytib o'tgan: Deyl Karnegi har yili yozda baliq oviga borardi. Shaxsan u qulupnay murabbosini yaxshi ko'rardi ammo bu g'alati tasodifni qarangki baliq chuvalchangni yaxshi ko'rishi haqida o'ylab ham ko'rmaydi. Shu bois baliq ovalashga borayotib u o'zining xoxishi haqida o'ylamaydi balki, baliqning xoxishi haqida o'laydi xolos shuning uchun qarmoqqa murabbo, qaymoq yoki boshqa narsa emas balki chuvalchang yoki chigirkani qo'yadi. Shunday usulda baliqni qarmoqqa jalg qiladi. Odamlarni o'zimizga jalb etishning dunyoda yagona usuli borki bu o'sha ularning xoxishiga muofiq gapirish va istagini amalga oshgirishga o'rgatishdir. Masalan, agar o'g'lingiz chekmasligini istasangiz, siz unga hikmatli so'z aytib o'tirmang yoki o'zimiz xoxlayotgan narsani uqtirish befoyda. Ammo chekish uning beysball jamoasiga a'zo bo'lishiga yoki 100 km ga yugurishiga xalal berishi mumkinligini tushuntiring. Professor Garri Overstreet ozining "Inson axloqiga ta'sir qilish" kitobida shunday deydi [2]: Bizning xulqimiz asosida ko'ngilda saqlangan istak va orzularimiz yotadi kimki o'z oldiga muayyan maqsad qo'yib kimdandir u tadbirkormi, oiladami, maktabdamni yoki siyosat olamidamni undan biror ish kutsa bu so'zsiz quyidagilarga olib keladi: avvalo hamsuhbatingizni nimanidur istab qolishiga majbur eting va kimdur buni uddalay olsa jahonni zabit etadi, kimdur eplay olmasa tanholik yolgizlik azobini tortadi. Dastavval soatiga ishi uchun 2 sent maosh olgan, keyinchalik xayriya maqsadlari uchun 360 dollar sarflagan kambag'al Shotland yigitni Endryu Karnegi buni juda erta tushunib yetdi. Uning fikricha atrofga ta'sir o'tkazishning yagona usuli bu men emas ular xoxish bildirgan narsalar haqida gapirishdir garchi u maktabga 4 yil qatnagan bo'lsada odamlar bilan muomala qilishni qoyillatar edi. Buni quyidagi misol orqali izohlab beradi: Uning kelini o'zining ikki o'g'lidan tashvishda edi. Ular uviverstitetda ta'lim olishar, o'zlarining muhim ishlari bilan band bo'lganliklari tufayli uyga umuman xat yozishmas edi. Aqldan ozar darajaga kelib qolgan onaning xatlariga javob ham yozishmas edi. Shu tariqa Karnegi kelini bilan garov bo'g'ladi va unga muofiq ikkala o'g'ilga bir marotaba xat yoziladi va iltimos qilinmasada keyingi pochtadanoq ular onasining xatiga javob yozib yuborishadi deb ishonch bildirdi. Garov sharti qabul qilindi u jiyanlariga qisqagina xat yozdi, xatda jiddiy biron gap ham yoq edi, xat oxirida har ikkisiga biroz pul yuborayotganini ta'kidlab o'tdi, ammo xatga pul solmasdan xatning o'zini jo'natib yubordi. Keyingi pochtadanoq darrov javob keldi. Unda "Hurmatli

Endryu tog'a..." deb boshlangan mazmundor xati uchun minnatdorchilik tuyg'ulari ifodalangan. Demak shundan xulosa qilishimiz mumkinki agar biz kimningdur nimadur qilishini xoxlaydigan bo'lsak biz unga o'z xoxishimizni majburan bajartirishimiz samarasiz ekanligini bilishimiz kerak. Bundan tashqari insonlarni manipulyatsiya qilishga yana bir qancha misollar keltirishimiz mumkin: agar bola qorni och qolsa o'z onasini yig'i vositasida manipulyatsiya qilaoladi. Agar siz bolangiz siz xoxlagan bilimni olishini xoxlasangiz unga majburan biron nimani o'rgata olmaysiz balki u yoqtirgan usul orqali nimanidur o'rgatsangiz shundagina urunishlarining behuda ketmaganiga amin bo'lasiz.

Inson psixologiyasi nihoyatda murakkab, uning muhim qismini xayolot olami tashkil qiladi. Shunday ekan odam bir vaqtning o'zida ikki parallel olamda yashaydi: real hayotda va tasavvurlar dunyosida. Shunisi qiziqliki, insonning aynan xayoliy dunyosiga tasharidan osonlikcha ta'sir ko'rsatish mumkin. Muhimi shundaki, bu ta'sir doim yashirin xarakterga ega bo'lib, insonning o'zi ko'pincha buni payqamaydi. Chunki bu jarayonni manipulyatsiya mexanizmi boshqaradi. Buni hayotiy misollar yordamida izohlaymiz: Agar biz talabalarimini darsda faol ishtirok etishi, diqqatini qaratishi va tartibli o'tirishini xoxlasagu, uni shu ishni qilishi uchun do'q po'pisa yoki kaltaklash orqali majbur qilsak bu manipulyatsiya hisoblanmaydi. Bu holat manipulyatsiya hisoblanishi uchun o'sha inson biz xoxlagan ishni o'z xoxishi, ixtiyori bilan bajarsagina bu manipulyatsiya hisoblanadi. Zotan, manipulyatsiya bu ong ustidan hukmdorlik o'rnatish bo'lib, unda inson ruhiyati, xatti-harakatlari va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatiladi. Ommaviy axborot vositalari faoliyatida qo'llanilishi nuqtai nazardan, manipulyatsiyani inson tafakkuri ustidan nazorat o'rnatish deya baholash mumkin. Manipulyatsiyaning muhim jihatlaridan biri shundaki, u orqali obyektning xatti harakatlarini dasturlash mumkin. Manipulyator faqat insonning aynan ruhiy dunyosini mo'ljalga oladi.

Ba'zida ma'nipulyativ ta'sirning xavfliligi shundaki, ta'sir doirasiga tushib qolgan odam nafaqat o'ziga uqtirilgan harakatni amalga oshiradi, balki ich ichidan bu harakatni o'z xoxishiga ko'ra amalga oshirayotganiga sidqidildan ishonib qoladi. Manipulyatsiya jarayonda ikkita qarama-qarshi tomon ishtirok etadi: manipulyatsiyani amalga oshiruvchi-manipulyatsiyaning subyekti hamda manipulyatsiya qaratilgan shaxs-manipulyatsiyaning obyekti. Manipulyatsiyaning subyekti manipulyator deb ham yuritiladi. Manipulyatsiyaning obyekti esa individ yoki omma ongi bo'ladi. Aksariyat rus olimlari C.Kara-Murzaning manipulyatsiya haqidagi qarashlarini qo'llab quvvatlagan holda G'arb, xususan, Amerika ommaviy axborot vositalari "ongni zaharovchi mashina", ruhiy terror vositasi" kabi ta'riflar bilan yonma yon qo'yadi, auditoriyani esa axborotni passiv qabul qiluvchi kishilar uyushmasidan iborat deb hisoblaydi.

Ingliz tilini o'rgatishda manipulyatsiya qilish va o'rganish juda qiyin bo'lgan mahorat, u o'zlashtirilganda esa katta kuch beradi. Qanchalik giperbolik bo'lmasin, ingliz tilini yozish va nutqimizda to'g'ri ishlata olish va boshqara olish jamiyatga g'oyalarni targ'ib qilishda juda ta'sirli bo'lishi mumkin. Manipulyatsiya orqali biz notiq sifatida boshqalar bizni qanchalik hokimiyatga ega deb bilishiga ta'sir qilamiz. Auditoriya ustidan obro'ga ega bo'lish uchun ishonch bilan yozish va gapirish, shuningdek, ingliz tilidan to'g'ri foydalanish uchun etarli malakaga ega bo'lish kerak, ya'ni murakkab jumlalar va keng lug'atni o'z ichiga olgan standart grammatika qoidalariga rioya qilish demakdur. Bundan tashqari, ingliz tilini yozma va og'zaki nutqda tasviriy til va kompozitsion usullardan foydalangan holda manipulyatsiya qilish yozuvni va nutqni yanada ishonchli va ta'sirli qiladi. To'g'ri va samarali gapirish sizning gapirish uslubingizni o'zgartiradi va odamlar sizni tinglash usulini o'zgartiradi. Ko'pchilik tomonidan qabul qilingan tilga nisbatan bilim va mahoratni namoyish etish orqali tinglovchilar yozuvchi yoki ma'ruzachiga bo'lgan ishonchni qozonadi va ular o'rtasida obro'li munosabatlarni rivojlantiradi. O'tgan tajribam orqali men ingliz tilidan to'g'ri foydalanish va manipulyatsiya qilish orqali ta'sirchan nutq va yozish tinglovchilar e'tiborini jaib qilish uchun vosita bo'lib xizmat qilishini anglab yetdim.

Xulosa qilib shuni aytishimi mumkinki, manipulyatsiyani agar tog'ri va foydali yo'lda ishlata olsak, ko'zlagan maqsadimiga erishaolamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYTLAR RO'YXATI:

1. Puja Mondal "The Importance of Manipulation in Teaching and Learning.
2. Linguistic manipulation: definition and types" Dr. Akopova Asya, Department of the English Language of the Humanitarian Faculties, South Federal University, Russia, Rostov-on-Don

3. Dotsenko E. (1997). Psychology of Manipulation: Phenomena, Mechanisms and Protection. Chero Publishing. Moscow.
4. George Orwell's 1984. Social Science Research Network. Berkes, J. (2000). Language as the 'Ultimate Weapon' in Nineteen Eighty-Four. Retrieved from http://www.berkes.ca/archive/berkes_1984_language.html
5. Harry Allien Overstreet "Influencing human behaviour" Amazon
6. <https://www.ipl.org/essay/The-Use-And-Manipulation-Of-The-English>.

UO'K 371.38:811.161.1'373.2

ONOMASTIK BIRLIKLARNING MAKTABLARDA O'QITILISHI

G.Sh.Ro'zimova, o'qituvchi, Urganch Davlat Universitetu, Urganch

Annotatsiya. Ushbu maqolada onomastik birliklarning maktab darsliklarida o'qitilishi va tahlili haqidagi misollar bilan izohlab berilgan.

Kalit so'zi: onomastika, zoonim, antroponim, toponim, onomasiologya, nominator, poetik onomastika.

Аннотация. В данной статье описывается преподавание и анализ ономастических единиц в школьных учебниках на примерах.

Ключевые слова: ономастика, зооним, антропоним, топоним, ономасиология, номинатор, поэтическая онамастика.

Abstract. This article describes the teaching and analysis of onomastic units in school textbooks with examples.

Key word: onomastics, zoonym, anthroponym, toponym, onomasiology, nominator, poetic onomastics.

Inson borliqdagi narsa va hodisalarni ongli ravishda kuzatar ekan, ularga xos bo'lgan umumiyligi hamda xususiy belgi-xususiyatlarni idrok qiladi va shu tariqa cheksiz olam, undagi mavjud narsalar, yuz beradigan hodisalar haqida turli tushuncha hamda tasavvurlarga ega bo'ladi. Bu jarayon tilda, ularga berilgan nomlarda yaqqol o'z aksini topadi. Tilshunoslikning nominatsiyaga oid ilmiy tadqiqotlarda narsa-hodisalarni nomlovchi shaxs subyekt (nominator yoki nominatorlar), nomlanuvchi narsalar obyekt deb atalgan. Biz subyekt o'rnida nominator, obyekt o'rnida nomlanuvchi terminlarini qo'llashni lozim topdik. Onomasiologyada qayd qilinishicha, nomlar uzoq tarixiy takomil mahsulidir; nomlarda insonning, ya'ni nominatorning ko'p yillik hayotiy kuzatishlari, ko'nikma va malakalari, tajribasi, predmetga, voqeа-hodisaga nomlanuvchiga bo'lgan turli ilmiy, ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy, diniy va etik-estetik munosabatlari aks etadi.

Nominator narsa va hodisalarni nomlar ekan, avvalo, umumlashtirish asnosida ish ko'radi, bunda onomastik nominatsiyaga xos umumiyligi bo'lgan belgi-xususiyatlarga asoslanadi. Shuningdek, nomlarda umumlashtirish, ya'ni abstraksiya qanchalik zarur bo'lsa, narsa va hodisalarni alohidalab, farqlab, yakkalab ko'rsatish va atash ham shunchalik muhimdir. Demak, yakka va aniq predmet, ya'ni nomlar – atoqli otlar majmuyi ham tilda muhim hayotiy zarurat va ehtiyoj tufayli yuzaga keladi. Tildagi mavjud atoqli otlarni o'rganuvchi soha onomastika sohasidir. **Onomastika** (yun.onomastike – nomlash, nom qo'yish san'ati) – muayyan tilning har qanday atoqli otlarini, ularning paydo bo'lish va taraqqiyot jarayonini o'rganuvchi bo'lim, shuningdek, barcha atoqli nomlar yig'indisidir. Ayrim tadqiqotlarda onomastika termini antroponimika ma'nosida ham qo'llangan [3.: 3-7]. Atoqli nomlarning lisoniy xususiyatlar Atoqli nomlarning lisoniy xususiyatlariga qarab Onomastika adabiy va dialektal, odatdag'i (amaliy) va poetik, zamonaviy va tarixiy, nazariy va amaliy turlarga bo'linadi. Nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalardagi atoqli nomlarning paydo bo'lishi, nominatsiya (nomlash) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o'zgarishlari, nutqda qo'llanishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda tarkibiy tuzilishinio'rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni (poetik onomastika) tadqiq etish alohida muammo hisoblanadi. Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik xaritalashtirish va boshqa usullarini qo'llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, so'z yasalishi, semantik, etimologik va boshqa jihatlarini o'rganadi. Amaliy onomastika xorijiy tillarga mansub nomlarning transkripsiysi va transliteratsiyasi, an'anaviy (talaffuz va yozilishiga ko'ra), tarjima qilinadigan va